

Ko'rik-tanlov zavqida

2018-yil 21-dekabr kuni TIQXMMI GM fakultetining faol qizlari o'rtasida **"Balli qizlar"** ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tanlov fakultet xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisasi D.Madazizova va fakultet Yoshlar ittifoqi yetakchisining xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha yordamchisi Sh. Iskandarova tomonidan tashkillashtirildi.

Ko'rik-tanlovni baholash uchun hay'at a'zolari Nizomiy nomidagi TDPU Ibn Sino ma'rifat maskani raisasi S.Safarova, A.Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti XQQ raisasi B.Xasanova, TIQXMMI QXM fakulteti XQQ BT raisasi N.Holiqovalar taklif etildilar.

Tanlovni fakultet dekani Fatxulloyev Alisher Mirzatilloyevich ochib berdilar. Tanlovda 4 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ular 1-bosqich 103-guruh talabasi Xusanova E'zoza, 2-bosqich 212 b-guruh talabasi Iskandarova Nohila, 2-bosqich 207-guruh talabasi Jumanazarova Komila va 2-bosqich 218-guruh talabasi Imomaliyeva Sohiba. Ishtirokchilar 4-shart bo'yicha bellashdilar. 1-shart tanishtiruv, 2-shart qovoq mahsulotlaridan dasturxon tuzash va berilgan mahsulotlardan salat tayyorlash, 3-shart erkin mavzuda milliy raqs, 4-shart savol-javob. Tadbir juda ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Bellashuv natijasiga ko'ra 218-guruh talabasi Imomaliyeva Sohiba g'olib deb topildi va esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildi.



"Gidromelioratsiya" fakulteti XQQ BT raisasi D.Madazizova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov